

Sinonimlarning Lugʻatlarda Berilishi

Asqar Eshmuminov¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksik-semantik munosbatlarning tarkibiy qismi boʻlgan sinonimlar va ularning lugʻatlarda berilishi masalasi haqidagi maʼlumotlarning davriy ketma-ketligi haqidagi qimmatli maʼlumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: Sinonim, sinonimiya, maʼnodoshlik, izohli lugʻat, sinonimlar lugʻati, taʼlimiy lugʻat.

Mavjud izohli lugʻatlar til birlik(sinonim)larni teglash uchun baza vazifasini bajaradi. “Buning uchun mavjud lugʻatlar qanday ishlovdan oʻtishi lozim?”, “Lugʻatlar qanday koʻrinishga kelsa, ulardan avtomatik teglashda foydalana olamiz?” kabi savollarga mavzuning shu qismida javob topamiz. Oʻzbek tilining mavjud sinonimik lugʻati hozirgi oʻzbek adabiy tili uchun xarakterli boʻlgan sinonimik qatorlarni oʻz ichiga olgan. Ammo barcha sinonimik qatorlarni qamrab ololmagan. Unga faqat leksik (lisoniy) sinonimlarga kiritilgan. Til korpuslari esa kontekstual sinonimlarni ham qamrab olishi lozim. Demak, hatto lisoniy sinonimlarni teglashda ham mavjud sinonimlar lugʻati toʻla maʼnoda manba boʻlolmaydi, ammo hozircha undan boshqa lugʻatda tayana olmaymiz.

Yordamchi soʻzlar orasida ham sinonimiya hodisasi kuzatilgani sababli lugʻatga shunday sinonimlar ham kiritilgan. Bir oʻzakdan sinonim affiksalar yordamida yasalgan *qandaydir, allaqanday; rahmsiz, berahm* kabi soʻzlar oʻzaro, shuningdek, bir soʻzning turli fonetik variantlari (*goho, goyida, goda* kabi) lugʻatda mustaqil sinonimik qator sifatida keltirilmagan. Lekin bunday soʻzlar boshqa soʻzlar bilan sinonim boʻlgan taqdirda, shu sinonimik qatorda ularning fonetik variantlari va sinonim affiksalar yordamida yasalgan soʻzlar ham keltirilgan. Masalan, *goho* soʻzi *baʼzan, unda-bunda, ora-sira* kabi soʻzlar bilan sinonim boʻlgani uchun shu sinonimik qatorda uning *gohida, goyida, goda* variantlari ham keltirilgan. Lugʻat maqolasi tuzilishi quyidagicha:

Bir soʻz birdan ortiq sinonimik qatorda bosh soʻz boʻladigan boʻlsa, bu holat rim raqamlari bilan koʻrsatilgan. Masalan:

AYTMOQ I, BAYON QILMOQ, IZHOR QILMOQ, BILDIRMOQ. “Fikr, maqsadni (biror gap-soʻzni) ogʻzaki ifoda etmoq”.

AYTMOQ II, TAKLIF QILMOQ, CHAQIRMOQ, CHORLAMOQ. “Kelish, ishtirok etish, tashrif buyurishni iltimos qilib murojaat etmoq”.

AYTMOQ III, OLMOQ. “Ijro etmoq” (ashula, qoʻshiq haqida).

Har bir lugʻat maqolasi quyidagi qismlardan tashkil topgan: 1) sinonimik qator; 2) sinonimik qatordagi soʻzlar uchun umumiy boʻlgan maʼnoning izohi; 3) sinonimik qatordagi har bir soʻzga xos xususiyatning taʼrifi; 4) sinonimik qator va har bir sinonimga berilgan taʼrifni tasdiqlovchi misol. Sinonimik qatordagi soʻzlar birdan ortiq maʼnoda oʻzaro sinonim boʻlsa, bu holat arab raqamlari bilan koʻrsatilgan:

ASRAMOQ, SAQLAMOQ. 1. Yomon taʼsir, salbiy hodisadan himoya qilmoq: *Zolimning zoʻridan oʻzing asra!..* (Oybek). *Lutfiniso... “yomon koʻzdan saqlasin” uchun...* (Oybek)

2. Yoʻq boʻlish va sh.k.ga yoʻl qoʻymay ehtiyot holda tutmoq: *Yolvorib soʻrayman, asra qalbingda...* (Uygʻun). *Ota, sen koʻpdan yoʻq... sening qalbingni qalbingda saqlayman, saqlayman hamon* (Shuhrat)

¹ TerDU dotsenti



3. Biror maqsad bilan tutmoq: *Uzum saqlamoq, mol saqlamoq.*

Ishning oldingi qismlarida semantik teglash muammolari yechimi sifatida lingvistik baza mavjud bo'lishi haqida to'xtalagan edik. Rus tilining milliy korpusi tuzilishi tajribasi bilan tanishar ekanmiz, ular matnni avtomatik teglash uchun "Leksikograf" nomli baza yaratgani ma'lum bo'ldi. Xo'sh, bunday bazalar nega kerak? Biz uni qanday yaratishimiz mumkin?

O'zbek tili lisoniy sinonimlarini teglash uchun mavjud sinonimlar lug'atini qayta ishlash lozim bo'ladi. Dastlab lug'at matni elektron shaklga keltiriladi, ikkinchi bosqichda sinonimlar lug'ati elektron lug'at shakliga keltirilishi kerak (bu ish, albatta, dasturchilar aralashuvini taqozo etadi). Lug'atning elektron matni imloviy, grafematik qayta ishlovdan o'tkaziladi. Bunda ortiqcha belgilar olib tashlanadi. Eng muhim ish – sinonimik qatorni, dominantani aniqlash va ularni teglash.

1. Lug'atning elektron matnida sinonimik qator ajratib ko'rsatiladi: {kuy, tarona}, {kifoya, yetarli, yetadi, bo'ladi, bo'ldi, bas}. Mana shu cheraqa dasturlash uchun sinonimik qator a'zolarini belgilab beradi.
2. Lug'atning elektron matnida sinonimik qator dominantasi aniqlanadi va asosiy lemma belgisi bilan ajratiladi. Masalan: *kutmoq, poylamoq*. Ushbu sinonimik qatorda *kutmoq* dominant, demak uni asosiy lemma sifatida belgilaymiz: <<*kutmoq*>>, <*poylamoq*>, <<*kulgi*>>, <*xanda*> kabi. Umumiy holatda esa {<<*kutmoq*>>, <*poylamoq*>}, {<<*kulgi*>>, <*xanda*>} shaklini oladi.
3. Bundan so'zlarning shu sinonim qatorga mansubligi bilinadi va lemmalar o'zaro bog'lanadi. *kulgi* so'zining sinonimii qidirilsa *xanda* sinonim sifatida topiladi, *xandaning* sinonimi qidirilganda *kulgi* topiladi hamda shu so'zshakllar kontekstiga ishora beriladi. Chunki bu lemmalar sinonimik qatorda bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Korpus tarkibidagi har qanday matnning ichidagi sinonim so'zshakl topiladi.

Sinonimlar lug'atidagi lug'at maqolasidan qaysi qismlarni baza uchun ajratib olish mumkin. Buning uchun lug'at maqolasi tuzilishiga e'tibor qaratamiz:

KIRISH, MUQADDIMA. Asar, nutq, gapning asosiydan oldingi (boshlanish) qismi.

Keyin qisqa kirish so'zi qilib, masalani butur vaziyati bilan batafsil tanishtirdi (J.Abdullaxonov). To'lagan ham qisqacha muqaddimadan keyin brigadasining pravleniyega bergan raportini o'qib berishi kerak edi,.. (A.Qahhor). A.Bogdanov janoblarining bayoni, uning o'zi ham muqaddimada to'ppa-to'g'ri so'z kitobini "konspekt" deb ataganidek, haqiqatan ham nihoyat darajada qisqa (V.I.Lenin).

KETMOQ, JO'NAMOQ, RAVONA BO'LMOQ. Turgan yerni tark etib, biror tomonga yo'l olmoq. **Ravona bo'lmoq** kam qo'llanadi.

Ketaylik bu eshikdan, Bo'lsak ham gado (G'ayratiy). O'rmonjon ta'bi xira bo'ldi-yu, o'tlanib rayonga jo'nadi (A.Qahhor). Orzigul... orqasiga o'girildi-da, uyi tomon ravona bo'ldi (X.Seitov). Margarita... Sobirjonning Nina Georgiyevna bilan tushgan surati va so'ngga maktubini oldi-da, ishdan otpuska so'rab, Toshkentga qarab ravona bo'ldi ("Toshkent haqiqati").

ISHLAMOQ, MEHNAT QILMOQ, XIZMAT QILMOQ. Ish-mehnat bilan mashg'ul bo'lmoq. **Xizmat qilmoq** bu ma'noda kam qo'llanadi.

[Fazliddin] *Keksalar kabi salmoqdor bir ohang bilan so'zga tushdi: "Bir vaqtlar bizda bir otaxon ishladi. G'arib, faqir mo'ysafid edi. Ko'p yil ishladi. U oltin odam edi" (Oybek). Yo'lchi o'z hamqurlari bilan birga tong shabadasida ishga tushar, quyosh tik kelgandi ovqatlanib, to qorong'ulik tushgancha yana mehnat qilar edi (Oybek). Yana u [Gulnor] bilan ochiqchasiga so'zlashuv kerak. Yigit o'ylay-o'ylay Shoqosimning xizmat qiladigan joyini, juqvozkashnikini ma'qul ko'rdi (Oybek).*

Ushbu maqolalar sinonimik qator, uning izohi va illyustrativ misollardan iborat. Korpus uchun sinonimlarni teglash dasturi bazasiga faqat sinonimik qator ajratib olinadi. Bu ma'lumotlar faqat sinonimlar qidiruvi uchun kerak. Ammo illyustrativ misol va izoh kerak alohida teglanishi kerak. Chunki korpusda tom ma'nodagi sinonimlar lug'atini ham mavjud bo'ladi. Ya'ni korpusning



qidiruvida sinonimlarning elektron lug‘ati ham mavjud bo‘ladi. Lug‘atda berilgan misollar eskirganligi, buning ustiga tilimizga yangi so‘zlar kirib kelganligini inobatga olsak, lug‘atning yangi nashrini amalga oshirish kerakligi ko‘rinib qoladi. Agar sinonimlar korpusi yaratilsa, korpus yangi va xilma-xil matnlar bilan to‘ldiriladi. Lug‘at uchun yangi-yangi illyustrativ misollar ham tayyor bo‘ladi. Chunki korpusda sinonim qidiruvi korpus tarkibidagi sinonim va ularning konteksti topiladi. Yangi lug‘at tuzishning eng qulay yo‘li korpus asosida lug‘atni shakllantirishdir. Sinonimlar korpusi yaratilsa, yangi sinonimlar lug‘ati tuziladi. Korpus davriy ravishda to‘ldirilib borilsa, elektron sinonimlar lug‘ati ham yangilanib boraveradi. Maqolalarda sinonimik qatorning kam qo‘llanuvchi a‘zosi ajratib ko‘rsatiladi. Yuqorigi sinonimik qatorlarda *ravona bo‘lmoq*, *xizmat qilmoq* kabi so‘zlar bu ma‘noda kam qo‘llanilishi ko‘rsatilgan. Ushbu fikr asosli emas, chunki chastotasi noaniq. Agar til korpusi mavjud bo‘lsa, misollar chastotasini ko‘rsatib turadi, sinonimik qator a‘zosining ishlatilish chastotasi ham aniq bo‘ladi. Chunki korpusdagi qidiruv natijasida lug‘atda berilganidek 4-6 ta illyustrativ misol emas, korpus hajmiga qarab 20-30, hatto yuzlab kontekstlar aniqlanishi mumkin.

Lisoniy sinonimlarni teglashdagi muammo bir so‘zning birdan ortiq sinonimik qatorda bosh so‘z bo‘lishidir. Bir so‘z birdan ortiq sinonimik qatorda bosh so‘z bo‘ladigan bo‘lsa, bu holat lug‘atda rim raqamlari bilan ko‘rsatiladi. Bunday vaqtda yuqorida taklif qilingan oddiy usul bilan teglashning imkoni bo‘lmaydi. Lug‘atdagi shunday sinonimik qatorlardan misollar keltiramiz.

UYALMOQ I, IYMANMOQ, ANDISHA QILMOQ, NOMUS QILMOQ, ORLANMOQ, OR QILMOQ. Uyat (andisha) his-sezgisini tuymoq. *Uyalmoq* keng tushunchaga ega va keng qo‘llanadi. *Iymanmoq* so‘zida belgi darajasi kuchsiz. *Andisha qilmoq* so‘zida ma‘lum darajada “yuz-xotir” munosabati bo‘ladi. *Nomus qilmoq* so‘zida belgi darajasi kuchli. *Orlanmoq* so‘zi juda kam qo‘llanadi. *Or qilmoq* so‘zi bu ma‘noda qo‘llanganda “munosib ko‘rmaslik” ottenkasida bo‘ladi.

“Dilor, o‘rtog‘ing qayerga tushgan?” Dilor ham bo‘yiga yetib qolgan qiz edi, bo‘lasiga tik javob qilishdang uyaldimi, ho‘zalar ichidan turib: “Uyida”, -dedi (M.Ismoilij). *Bashorat iymanib yerga qaradi, etagini g‘ijimladi (A.Muxtor).* *“Shuncha tomosha qilganing yetar, endi bora qol”, - deyishga andisha qiluvdim... (H.Nazar).* *... vijdotsiz xotin esa, nomus qilmay, tumonatni boshiga to‘plagan... (“Mushtum”).* *Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim (Maqol).* *Xo‘jabekovning ilgarigi lavozimida “o‘z arizasiga binoan” bo‘shab, keyincha “kichikroq” vazifalarda ishlashga or qilib, “kattaroq” ish topolmay ikki yil ishsiz laqillab yurganidan xabari bor (S.Anorboyev).*

UYALMOQ II, IZZA BO‘LMOQ. Uyalish (izza) his-sezgisini tuymoq, uyatga qolmoq. *Izza bo‘lmoq* so‘zida belgi darajasi kuchli.

Sattorqul chiqib, “Undoq qilamiz, bundoq qilamiz”, - deb aravani quruq olib qocha bergan edi, Oxunboboyev: “Qisir sigir ko‘p ma‘raydi”, - dedilar. Biram kulgili bo‘ldi, Sattorqul biram uyaldi (A.Qahhor). *Alang-jalang qilib Xoliqvoy, Shoshib-pishib o‘rnidan turdi. Izza bo‘lib o‘z ahvoliga, Uyg‘a qarab darrov yugurdi (Uyg‘un).*

QIZIQMOQ I, HAVASLANMOQ, HAVAS QILMOQ. Erishish (yetishish, o‘rganish va h.) istagiga ega bo‘lmoq. *Havaslanmoq* nisbatan kam qo‘llaniladi.

Bir kunda sakson, yuzga yetkazib kaklik otish hech gap emas edi. Eshmon juda havaslanib tikilib qoldi (Sh.G‘ulomov). *Men yoshligimda boksyorlikni yaxshi ko‘rardim. Havas qilib to‘garakka kirdim. (I.Rahim).* *Onag aylansin, Marasul, xotining yosh, kimda nima ko‘rsa, havas qiladi (A.Qahhor).*

QIZIQMOQ II, UCHMOQ. Ahamiyatsiz bir narsaning ta‘siriga berilmoq, shunday narsa oldida o‘zini tiya olmaslik. *Uchmoq* ko‘proq salbiy bo‘yoq bilan qo‘llanadi va unda belgi darajasi kuchliroq. *Sening poyqadamingga sochmoq uchun zarlarim yo‘q! Lekin jonim bor, jonim! Boyning molu mulkiga qiziqib... (Hamza).* *Darvoqe, Rayhonning nimasiga ucha qoldim? (J.Abdullaxonov).*

O‘zbek tili sinonimlari lug‘atini o‘rganib chiqish natijasida shunday xulosaga keldikki, bunday sinonimik qatorlar miqdori ko‘p emas. Bunday hollarda yuqoridagi kabi teglash qidiruv natijasi noaniq misollarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun sinonimlar lug‘atiga tayanib, korpusni tuzish, lemmalash, teglash jarayonida korpus tarkibiga kirgan shunday so‘zlarni birma-bir qidiruv asosida matnlar ichidan



topish va ularni maxsus izoh bilan teglash kerak. Natijada, foydalanuvchi ma'nodagi chalkashlikni emas, aniq misollarni ko'radi.

Sinonimik qatordagi so'zlar birdan ortiq ma'noda o'zaro sinonim bo'lsa, bu holat arab raqamlari bilan ko'rsatilgan. Bunday sinonimik qatorni teglash ham alohida yondashuvni talab qiladi. Lug'atdagi shunday sinonimik qatorlardan misollar keltiramiz.

BALAND, YUQORI. 1. Yer sathidan uzoq masofada. **Baland** yer sathidan juda yuqoridagi joy (nuqta)ni ifodalash uchun ham qo'llana oladi. Yuqori asosan yer sathidan uzoqligi uncha ortiq bo'lmagan joyni ifodalashda qo'llanadi.

Balandda, yulduzli ko'kda qayoqqadir samolyotlar uchib o'tdi (Oybek). Oy ufqdan salgina yuqorida xira nur sochmoqda, hamma yoq jimjit (A.Qahhor).

2. Kuch darajasi normal holatdan ortiq. Bu ma'noda yuqori so'zi nisbatan kam qo'llanadi.

Isitmasi baland, bosinqirayapti (M.Ismoilij). Yo'lchi baland tovush bilan ularga murojaat qilib to'xtadi (Oybek). Qutidor tanchaga borib o'tirmadi-da, ayvon peshonasidan turib quyidagi xatni yuqori tovush bilan o'qib chiqdi (A.Qodiriy).

YORISHMOQ, OCHILMOQ. 1. Yorug' (ravshan) holatli bo'lmoq.

Quyosh tig'lari ko'rinmasa ham, sharq osmoni ancha yorishib, odamlar yuzi ko'zlarga ravshan chalina boshladi (M.Ismoilij).

2. Tundlik holati yo'qolmoq, yaxshi kayfiyat alomati paydo bo'lmoq.

Bundan ko'ngli bir oz yumshab, chehrasi yorishgan Xisrav uni bag'riga bosib o'pdi (M.Ibrohimov). "Zap toangiz bor ekanda, - dedi qiz bilan ertasiga uchrashganda ochilib, - biram xushmuomala, biram madaniyatli ekanlar, lablaridan bol tomadi" (Shuhrat).

Aytish kerakki, bunday sinonimik qatorlari lug'atda anchagina. Ularni teglashni qo'lda bajarish mumkin ancha qiyin (korpus tarkibi qatta bo'lsa, albatta). Shu sababli bunday so'zshakllar yuqorida aytilganidek, sinonimik qatorning chegarasiga kiritiladi va oddiy teglash amalga oshiriladi. Qidiruv natijasida ikkala ma'nosidagi sinonimik kontekst ham foydalanuvchiga ko'rinadi. Foydalanuvchi natijalarni o'zi saralaydi. Saralashga korpus tarkibidagi elektron sinonimlar lug'ati yordam berishi mumkin. Sinonimlar lug'atida misol va izohlar qog'oz lug'atda qanday berilgan bo'lsa, o'shanday ko'rinishda bo'ladi. Xulosa chiqarish misollarni tahlil qilish asosida foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, lisoniy sinonimlarni teglashda mavjud sinonimlar lug'ati lingvistik ta'minot vazifasini bajara oladi. Faqat bunday lug'atlar qayta ishlovdan o'tishi, sinonimik qator a'zolari va dominantani lemmalash; sinonimik qatorni chegaralash va lemmalangan qator a'zolarini bir-biri bilan bog'lash amalga oshirilishi lozim. Shundagina qayta ishlangan lug'at dasturchi uchun dasturiy ta'minot asosini tashkil eta oladi.

ADABIYOTLAR

1. Плу́нгян В.А. Зачем нужен Национальный корпус русского языка? Неформальное введение / В.А. Плу́нгян // Национальный корпус русского языка: 2003 – 2005. – М.: Индрик. – С. 6 – 20.
2. Эшму́минов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. афтореф. – Қарши, 2019
3. Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. афтореф. – Қарши, 2018
4. Усмонов С.. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 22- Б. 18.
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. - Тошкент. "Ўқитувчи", 1974. Б.308



6. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –Б. 183.
7. Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология (Педагогика институтлари филология факультетларининг сиртки бўлим студентлари учун қўлланма). – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. –Б. 25-27.
8. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. –Б. 44-45.
9. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 32.
10. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
11. Йўлдашев Б.. Фразеологик услубият асослари. Ўқув қўлланмаси. - Самарқанд: СамДУ нашри, 1998. - 200 б.
12. Шамсиддинов Ҳ. Сўзлар функционал-семантик синонимларининг шаклий ва маъновий табиати. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2008. – Б. 4.
13. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. - Тошкент, 1997.
14. Bobojonov Sh., Islomov I. O`zbek tilining so`zlar darajalanishi o`quv lug`ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
15. Mengliyev B. Hozirgi o`zbek tili. (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath). - Toshkent: Tafakkur bo`stoni, 2018.
16. Shukurov O., Bahriddinova B. O`zbek tilining ma`nodosh so`zlar o`quv lug`ati. Maktab o`quvchilari uchun. – Toshkent, 2006.
17. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б. 3; 24.
18. https://studme.org/113414/literatura/obschaya_harakteristika_sinonimov_sinonimicheskogo_ryada.

